LG
Life's Good

LED TV
UF77**
UF80**
UF85**

www.lg.com





P/No: MFL68901402 (1503-REV04)
Printed in Korea

English Read **Safety and Reference**.

Русский Прочтите **Руководство о технике безопасности.**

Қазақша **Қауіпсіздік пен анықтама** бөлімін оқыңыз.

Română Citiţi **Siguranţă şi referinţe**.

Українська Прочитайте **Правила безпеки та довідкову інформацію**.

O'zbekcha **Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar va havolalarni** o'qib chiqing.

Монгол **Аюулгүй ажиллагааны зааварчилгаа** унш.



1











2


A
B


A
▼ PCMCIA CARD SLOT ▼
USB IN
1(USB 3.0)
2
3
HDMI (4K@60Hz)/DVI IN
1
2 (ARC)
3


B
UF77**
UF80**
SVC ONLY
LAN
AUDIO OUT/
H/P OUT
OPTICAL
DIGITAL
AUDIO OUT
PC-AUDIO IN
VIDEO/Y PB PR L/MONO AUDIO R
COMPONENT IN/ AV IN
13/18V 700mA Max
LNB
Satellite IN
ANTENNA/
CABLE IN
PC-AUDIO IN
VIDEO/Y PB PR L/MONO AUDIO R
COMPONENT IN/ AV IN
PC-AUDIO IN
VIDEO/Y PB PR L/MONO AUDIO R
COMPONENT IN/ AV IN
VIDEO
L (MONO)-AUDIO-R
Y PB PR L R
VIDEO
AUDIO


B
UF85**
LAN
SVC ONLY
AUDIO OUT/
H/P OUT
OPTICAL
DIGITAL
AUDIO OUT
PC-AUDIO IN
COMPONENT IN
/AV IN
VIDEO/Y
PB
PR
L/MONO-AUDIO-R
13/18V
700mA Max
LNB
Satellite IN
ANTENNA /
CABLE IN
VIDEO
L(MONO)-AUDIO-R
Y
PB
PR
L
R
VIDEO
AUDIO

3



4



5





	40UF778V-ZA 40UF7787-ZA 40UF7789-ZA 40UF800V-ZA 40UF8007-ZA 40UF8009-ZA	43UF778V-ZA 43UF7787-ZA 43UF7789-ZA 43UF800V-ZA 43UF8007-ZA 43UF8009-ZA
A x B x C (mm)	906 X 576 X 218	971 X 625 X 218
A x E x F (mm)	906 X 524 X 56.7	971 X 570 X 56.4
D (kg)	10.0	11.4
D - G (kg)	9.1	10.5
Power requirement	AC 100 - 240 V ~ 50 / 60 Hz	
Power consumption	110 W	110 W

	49UF778V-ZA 49UF7787-ZA 49UF7789-ZA 49UF800V-ZA 49UF8007-ZA 49UF8009-ZA	55UF778V-ZA 55UF7787-ZA 55UF7789-ZA 55UF800V-ZA 55UF8007-ZA 55UF8009-ZA	60UF778V-ZA 60UF7787-ZA 60UF7789-ZA 60UF800V-ZA 60UF8007-ZA 60UF8009-ZA	65UF778V-ZA 65UF7787-ZA 65UF7789-ZA 65UF800V-ZA 65UF8007-ZA 65UF8009-ZA	70UF771V-ZK 70UF7717-ZK
A x B x C (mm)	1104 X 704 X 261	1240 X 781 X 261	1348 X 846 X 273	1460 X 903 X 273	1572 X 964 X 284
A x E x F (mm)	1104 X 645 X 56.7	1240 X 722 X 56.7	1348 X 782 X 58.5	1460 X 846 X 58.5	1572 X 909 X 59.7
D (kg)	15.1	18.9	24.4	28.6	30.1
D - G (kg)	14.0	17.8	23.3	27.0	28.7
Power requirement	AC 100 - 240 V ~ 50 / 60 Hz				
Power consumption	130 W	150 W	170 W	190 W	200 W

	49UF850V-ZB **49UF8507-ZB** **49UF8509-ZB** **49UF851V-ZC** **49UF8517-ZC** **49UF8519-ZC** **49UF852V-ZE** **49UF8527-ZE** **49UF8529-ZE** **49UF853V-ZE** **49UF8537-ZE**	**55UF850V-ZB** **55UF8507-ZB** **55UF8509-ZB** **55UF851V-ZC** **55UF8517-ZC** **55UF8519-ZC** **55UF852V-ZE** **55UF8527-ZE** **55UF8529-ZE** **55UF853V-ZE** **55UF8537-ZE**	**60UF850V-ZB** **60UF8507-ZB** **60UF8509-ZB** **60UF851V-ZC** **60UF8517-ZC** **60UF8519-ZC** **60UF852V-ZE** **60UF8527-ZE** **60UF8529-ZE** **60UF853V-ZE** **60UF8537-ZE**	**65UF850V-ZB** **65UF8507-ZB** **65UF8509-ZB** **65UF851V-ZC** **65UF8517-ZC** **65UF8519-ZC** **65UF852V-ZE** **65UF8527-ZE** **65UF8529-ZE** **65UF853V-ZE** **65UF8537-ZE**
A x B x C (mm)	1095.1 X 699 X 260.6	1234.8 X 781.6 X 260.6	1342.6 X 840.3 X 273.0	1453.7 X 903.3 X 273.0
A x E x F (mm)	1095.1 X 649.5 X 51.3	1234.8 X 727.3 X 50.8	1342.6 X 788 X 51.0	1453.7 X 850.5 X 51.6
D (kg)	17.3	20.4	25.4	32.8
D - G (kg)	16.2	19.3	24.3	31.3
Power requirement	AC 100 - 240 V ~ 50 / 60 Hz			
Power consumption	130 W	140 W	180 W	200 W

Данные по энергоэффективности для моделей телевизоров LG

* Указанные модели телевизоров не имеют «выключенного режима» Для полного отключения телевизора - отсоедините его от сети питания.

Модель	Удельная мощность рабочего режима: Вт/см^2	Потребляемая мощность изделием в режиме ожидания: Вт	Потребляемая мощность изделием в выключенном режиме	Модель	Удельная мощность рабочего режима: Вт/см^2	Потребляемая мощность изделием в режиме ожидания: Вт	Потребляемая мощность изделием в выключенном режиме
40UF778V-ZA	0.026	0.3	отсутствует	**55UF778V-ZA**	0.019	0.3	отсутствует
40UF7787-ZA				**55UF7787-ZA**			
40UF7789-ZA				**55UF7789-ZA**			
40UF800V-ZA				**55UF800V-ZA**			
40UF8007-ZA				**55UF8007-ZA**			
40UF8009-ZA				**55UF8009-ZA**			
43UF778V-ZA	0.023	0.3	отсутствует	**60UF778V-ZA**	0.018	0.3	отсутствует
43UF7787-ZA				**60UF7787-ZA**			
43UF7789-ZA				**60UF7789-ZA**			
43UF800V-ZA				**60UF800V-ZA**			
43UF8007-ZA				**60UF8007-ZA**			
43UF8009-ZA				**60UF8009-ZA**			
49UF778V-ZA	0.020	0.3	отсутствует	**65UF778V-ZA**	0.017	0.3	отсутствует
49UF7787-ZA				**65UF7787-ZA**			
49UF7789-ZA				**65UF7789-ZA**			
49UF800V-ZA				**65UF800V-ZA**			
49UF8007-ZA				**65UF8007-ZA**			
49UF8009-ZA				**65UF8009-ZA**			
				70UF771V-ZK	0.016	0.3	отсутствует
				70UF7717-ZK			

Модель	Удельная мощность рабочего режима: Вт/см^2	Потребляемая мощность изделием в режиме ожидания: Вт	Потребляемая мощность изделием в выключенном режиме	Модель	Удельная мощность рабочего режима: Вт/см^2	Потребляемая мощность изделием в режиме ожидания: Вт	Потребляемая мощность изделием в выключенном режиме
49UF850V-ZB	0.020	0.3	отсутствует	**60UF850V-ZB**	0.019	0.3	отсутствует
49UF8507-ZB				**60UF8507-ZB**			
49UF8509-ZB				**60UF8509-ZB**			
49UF851V-ZC				**60UF851V-ZC**			
49UF8517-ZC				**60UF8517-ZC**			
49UF8519-ZC				**60UF8519-ZC**			
49UF852V-ZE				**60UF852V-ZE**			
49UF8527-ZE				**60UF8527-ZE**			
49UF8529-ZE				**60UF8529-ZE**			
49UF853V-ZE				**60UF853V-ZE**			
49UF8537-ZE				**60UF8537-ZE**			
55UF850V-ZB	0.018	0.3	отсутствует	**65UF850V-ZB**	0.018	0.3	отсутствует
55UF8507-ZB				**65UF8507-ZB**			
55UF8509-ZB				**65UF8509-ZB**			
55UF851V-ZC				**65UF851V-ZC**			
55UF8517-ZC				**65UF8517-ZC**			
55UF8519-ZC				**65UF8519-ZC**			
55UF852V-ZE				**65UF852V-ZE**			
55UF8527-ZE				**65UF8527-ZE**			
55UF8529-ZE				**65UF8529-ZE**			
55UF853V-ZE				**65UF853V-ZE**			
55UF8537-ZE				**65UF8537-ZE**			

MFL68901402

FOYDALANISH BO’YICHA QO’LLANMA

Xavfsizlik bo’yicha ko’rsatmalar va havolalar

LED TV*

* LG LED televizorida LED yoritkichlariga ega bo’lgan LCD ekrandan foydalaniladi.

Iltimos, televizoringizdan foydalanishdan avval ushbu qo’llanmani diqqat bilan o’qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo’ying.

www.lg.com

Xavfsizlik texnikasi bo'yicha ko'rsatmalar



Iltimos, mahsulotdan foydalanishdan avval ushbu xavfsizlik ehtiyot choralarini diqqat bilan o'qib chiqing.

⚠ OGOHLANTIRUV



Televizor va/yoki masofadan boshqarish pultini quyidagi joylarda qoldirmang:

- To'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushadigan joyda
- Namlik yuqori bo'lgan joylar, masalan, hammomda
- Issiqlik manbalari, masalan, pechlar va boshqa issiqlik hosil qiluvchi qurilmalar yaqinida
- Oshxona peshtaxtalari yoki namlantirgichlar yaqinida; bu yerda ular osongina bug' yoki moy ta'sirida qolishlari mumkin.
- Yomg'ir yoki shamol mavjud joylarda
- Vaza singari suv idishlari yaqinida

Aks holda, bu yong'in, elektr toki urishi, texnik nosozlik yoki mahsulot deformatsiyasiga olib kelishi mumkin.



Mahsulotni changlar ta'siriga uchrashi mumkin bo'lgan joylarga qo'ymang. Bu yong'in xavfini keltirib chiqarishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash shnuri vilkasi bu televizorni o'zgaruvchan elektr tarmog'iga ulovchi/tarmog'idan uzuvchi qurilmadir. Televizor foydalanishda bo'lgan vaqtda ushbu vilka mustahkam ulangan va ishlaydigan holatda bo'lishi kerak.



Elektr manbaiga ulash vilkasiga nam qo'llaringiz bilan tegmang. Bundan tashqari, agar kabel kontaktlari ho'l yoki chang bilan qoplangan bo'lsa, vilkani to'liq quriting yoki changlarni artib tashlang. Ortiqcha namlik tufayli sizni elektr toki urishi mumkin.



Elektr tarmog'iga ulash kabelining yerga mahkamlangan mos rozetkaga ulanganligiga ishonch hosil qiling. (Yerga mahkamlash talab qilinmaydigan qurilmalardan tashqari.) Aks holda, sizni elektr toki urishi yoki shikastlanish xavfi mavjud bo'ladi.



Elektr tarmog'iga ulash kabeli vilkasini devordagi rozetkaga to'liq kiriting, aks holda, vilka rozetkaga mustahkam biriktirilmagan hollarda yong'in uchqunlari chiqishi mumkin.



Quvvat manbaiga ulash shnurining isitgich kabi issiq buyumlarga tegib turmaganligiga ishonch hosil qiling. Bu yong'in yoki elektr toki urishi xavfini keltirib chiqarishi mumkin.



Elektr manbaiga ulash kabellarining ustiga og'ir jismlarni yoki mahsulotning o'zini qo'ymang. Aks holda, bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Yomg'ir suvining oqib kirishining oldini olish uchun antenna kabelini bino ichi va tashqari oralig'ida buking. Aks holda, mahsulot ichiga oqib kirgan suv nosozlikni keltirib chiqarishi va elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Televizorni devorga o'rnatishda elektr toki urishi/yong'in chiqishi havfi kelib chiqmasligi uchun uning mustahkam o'rnatilganligi va televizorning orqa tarafidagi kabellarning izolyatsiyalanganligiga ishonch hosil qiling.



ko'p tirqishli rozetkaga haddan tashqari ko'p elektr qurilmalarini ulamang. Aks holda, ortiqcha qizib ketish oqibatida yong'in xavfini keltirib chiqarishi mumkin.

O'ZBEKCHA



Tashqi qurilmalarni ulaganda mahsulotning ag'darilib ketishiga yoki tushib ketishiga yo'l qo'ymang. Aks holda, jarohatlanishingiz yoki mahsulotga zarar yetishi mumkin.



Namlanishdan himoyalovchi qadoq yoki vinil qadoqni bolalarning qo'llari yetmaydigan joyda saqlang.
Namlanishga qarshi material yutib yuborilganda hayot uchun xavflidir. Bilmasdan yutib yuborilgan hollarda bemorni qayt qilishga majbur qiling va eng yaqin joylashgan shifoxonaga olib boring. Bundan tashqari, vinil qadoq ashyosi bo'g'ilishga olib kelishi mumkin. Uni bolalarning qo'llari yetmaydigan joyda saqlang.



Farzandlaringizni televizorga osilib yoki tirmashib chiqishlariga yo'l qo'ymang.
Aks holda, televizor ag'darilishi va jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.



Yosh bolalar batareyalarni yutib yubormasliklariga ishonch hosil qilish uchun yaroqsiz batareyalarni axlatga tashlang. Iltimos, bola batareyani yutib yuborgan hollarda darhol shifokor huzuriga boring.



Vilka devordagi asosiy quvvat manbai rozetkasiga ulangan hollarda shnur vilkasi va devordagi rozetka orasiga va, shuningdek, shnurning televizorga ulanadigan qismiga metal buyumlar/o'tkazgichlarni (masalan, ovqatlanish uchun metal cho'p/oshxona asboblari/otvyortka kabilarni) kiritmang. Bundan tashqari, shnur vilkasi rozetkaga ulanishi bilan darhol shnurga tegib ketmang. Aks holda, elektr toki zarbiga uchrashingiz mumkin. (Rusumga qarab)



Yonuvchan moddalarni mahsulot yaqiniga qo'ymang yoki saqlamang. Yonuvchan moddalar bilan ehtiyotsiz munosabatda bo'lish yonish, portlash yoki yong'in chiqish xavfini keltirib chiqarishi mumkin.



Tanga, soch to'g'nag'ichi, tayoqcha yoki sim kabi metal buyumlar yoki qog'oz va gugurt kabi yonuvchan buyumlarning mahsulot ustiga tushib ketishiga yo'l qo'ymang. Bolalar alohida e'tibor qaratishlari lozim.
Elektr toki urishi, yong'in yoki shikastlanish sodir bo'lishi mumkin. Agar begona buyumlar mahsulot ustiga tushib ketsa, mahsulotni quvvat manbaidan uzing va iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.



Mahsulotga suv sachratmang yoki yonuvchan moddalar (erituvchi yoki benzin) bilan ishqalab artmang. Yong'in yoki elektr toki urishi halokati sodir bo'lishi mumkin.



Ushbu jihozga hech qanday ta'sir, zarbaning bo'lishiga yoki ustiga buyumlarning tushib ketishiga yo'l qo'ymang hamda ekranga hech narsani tushirib yubormang. O'zingiz jarohatlanishingiz yoki mahsulotga zarar yetishi mumkin.



Momaqaldiroq yoki chaqmoq vaqtida mahsulot yoki antennaga tegmang. Sizni elektr toki urishi mumkin.



Gaz chiqishi sodir bo'lgan hollarda devordagi rozetkaga tegmang, oynalarni oching va xonani shamollating. Uchqun orqali yong'in yoki portlash sodir bo'lishi mumkin.



Mahsulotni o'zingiz bilgancha qismlarga ajratmang, ta'mirlamang yoki o'zgartirmang.
Yong'in yoki elektr toki urishi ko'ngilsiz hodisasi sodir bo'lishi mumkin. Tekshirish, kalibratsiya qilish yoki ta'mirlash uchun iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.



Quyidagilardan birortasi sodir bo'lgan hollarda mahsulotni darhol elektr tarmog'idan uzing va mahalliy iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling.

- Mahsulot zarba ta'sirida qolganda
- Mahsulotga zarar yetganda
- Mahsulotga begona buyumlar kirib qolganda
- Mahsulotdan tutun yoki notabiiy hid chiqqanda

Bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Agar televizordan uzoq muddat foydalanishni rejalashtirmasangiz, o'zgaruvchan tok tarmog'i rozetkasidan uzib qo'ying. Changlarning to'planishi yong'in xavfini keltirib chiqarishi va izolyatsiyaning yemirilishi elektr tokining ortiqcha sarfiga, zarbiga va yong'inga olib kelishi mumkin.



Jihozga suyuqliklar tomib turmasligi yoki sachramasligi hamda vaza singari suyuqlik bilan to'ldirilgan buyumlar jihoz ustiga qo'yilmasligi kerak.

Agar ushbu mahsulot moy yoki moyli tuman ta'siriga uchrashi mumkin bo'lsa, uni devorga o'rnatmang. Bu mahsulotni buzishi va uning tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.



Agar suv yoki boshqa modda (o'zgaruvchan tok, elektr shnuri, televizor kabi) mahsulotga kirsa, quvvat simini ajrating va darhol xizmat ko'rsatish markaziga murojaat qiling. Aks holda, bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Faqatgina LG Electronics tomonidan tasdiqlangan o'zgaruvchan tok adapteri va elektr shnuridan foydalaning. Aks holda, bu yong'in, elektr toki urishi, noto'g'ri ishlash yoki mahsulot deformatsiyasiga olib kelishi mumkin.



o'zgaruvchan tok adapteri va elektr shnurini hech qachon qismlarga ajratmang. Bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.

⚠ EHTIYOT BO'LING



Mahsulotni radio to'lqinlar ta'siri yo'q joylarga o'rnating.



Antenna tushib ketgan hollarda uning elektr simlari ustiga tushishini oldini olish uchun tashqi antenna va elektr simlari orasida yetarlicha masofa bo'lishi kerak. Bu elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Mahsulotni mustahkam bo'lmagan tokcha yoki qiya yuzalar kabi joylarga o'rnatmang. Shuningdek, tebranish mavjud joylarga yoki mahsulotni mustahkam o'rnatish imkoni bo'lmagan joylarga ham o'rnatishdan saqlaning.
Aks holda, mahsulot tushib ketishi yoki ag'darilib ketishi, bu esa o'z navbatida mahsulotga shikast yetishiga yoki shaxsiy zarar xavfiga olib kelishi mumkin.



Agar siz televizorni tayanchga o'rnatmoqchi bo'lsangiz, mahsulotning ag'darilib ketishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rishingiz kerak bo'ladi. Aks holda, televizor tushib ketishi, bu esa shaxsiy zarar xavfiga olib kelishi mumkin.

Agar siz mahsulotni devorga o'rnatmoqchi bo'lsangiz, VESA (Videoelekronikani Standartlashtirish Uyushmasi) standartiga mos keladigan o'rnatish interfeysini (ixtiyoriy qismlarni) mahsulotning orqa tarafiga mahkamlang. Televizorni devorga mahkamlanadigan tayanchdan (ixtiyoriy qismlardan) foydalangan holda o'rnatishda uning tushib ketmasligi uchun tayanchni mustahkam qotiring.

Faqat ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya qilingan qo'shimcha qism va qurilmalardangina foydalaning.



Antennani o'rnatishda malakali xizmat ko'rsatuvchi texnik xodim bilan maslahatlashing. Malakali texnik tomonidan o'rnatilmagan hollarda yong'in yoki elektr toki zarbi havfi yuzaga kelishi mumkin.



Biz televizor ko'rganingizda ekran diagonali o'lchamining 2 barobaridan 7 barobarigacha bo'lgan masofa saqlashingizni tavsiya qilamiz. Televizorni uzoq vaqt davomida ko'rish ko'zning xiralashishiga olib kelishi mumkin.



Batareyaning faqat maxsus turidan foydalaning. Bu masofadan boshqarish pultiga shikast yetkazishi mumkin.



Yangi batareyalarni eski batareyalar bilan aralash o'rnatmang. Bu batareyalarning haddan ziyod qizib ketishi va natijada oqishiga olib kelishi mumkin.

Batareyalarni ortiqcha issiqlik ta'sirida qoldirmaslik lozim. Masalan, to'g'ridan-to'g'ri tushadigan quyosh nurlari, ochiq otashgoh va elektr isitgichlardan uzoqroq saqlang.

Zaryadlovchi qurilmaga zaryadlanmaydigan batareyalarni joylashtirmang.



Masofadan boshqarish pulti va uning sensori orasida to'siqlarning yo'qligiga ishonch hosil qiling.



Tashqi/ichki yoritkichlar, quyosh nurlari, fluoroessent (lyuminessent) yoritkichlar tufayli masofadan boshqarish pulti signal uzatilishida to'siqlar hosil bo'lishi mumkin. Agar bunday holat sodir bo'lsa, yoritkichni o'chiring yoki ko'rish sohasini qorong'ilashtiring.



Videoo'yinlar pristavkasi kabi tashqi qurilmalarni ulaganda bog'lovchi kabellarning yetarli darajada uzunligiga ishonch hosil qiling. Aks holda, mahsulot tushib ketishi, bu esa, shaxsiy zarar xavfiga yoki yoki mahsulotga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.



Elektr manbaiga ulash shnurini rozetkaga ulash yoki rozetkadan uzish orqali mahsulotni yoqmang/o'chirmang. (Vilkadan yoqish va o'chirish vositasi sifatida foydalanmang.) Bu mexanik nosozlikka yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Mahsulotning haddan ziyod qizib ketishining oldini olish uchun quyidagi o'rnatish bo'yicha ko'rsatmalarga amal qiling.

- Mahsulot va devor orasidagi masofa kamida 10 sm bo'lishi kerak.
- Mahsulotni havo aylanmasi yo'q joylarga (masalan, kitob javoni yoki devoriy shkafga) o'rnatmang.
- Mahsulotni gilam yoki divan yostig'iga o'rnatmang.
- Havo aylanish tirqishining dasturxon yoki parda bilan to'silib qolmaganligiga ishonch hosil qiling.

Aks holda, bu yong'in chiqishiga olib kelishi mumkin.



Uzoq vaqt davomida televizor ko'rish vaqtida havo aylanish tirqishlariga tegib ketmaslikka e'tibor bering, chunki havo aylanish tirqishlari issiq bo'lishi mumkin. Bu mahsulotdan qanday foydalanish yoki uning ishlash samaradorligiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Qurilma shnurini vaqti-vaqti bilan tekshirib boring va agar unda nosozlik yoki umumiy holat yomonlashuvi alomatlari paydo bo'lsa, uni rozetkadan uzing, qurilmadan foydalanishni to'xtating va vakolatli texnik xodim yordamida shnurni xuddi shunday yangi shnur bilan almashtiring.



Vilka kontaktlari yoki rozetkada chang to'planishiga yo'l qo'ymang. Bu yong'in xavfini keltirib chiqarishi mumkin.



Quvvat manbaiga ulash shnurini bukish, ezish, eshikka qisib qo'yish yoki ustidan yurish kabi jismoniy yoki mexanik ta'sirlardan himoya qiling. Vilkalar, rozetkalar va qurilmaga shnur ulangan nuqtalarga alohida e'tibor bering.



Panelni qo'l yoki tirnoq, qalam yoki ruchka kabi o'tkir narsalar bilan qattiq bosmang yoki uning ustini tirnamang, chunki bu ekranga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.



Uzoq vaqt davomida ekranga tegib turish yoki barmog'(lar)ingiz bilan uni bosib turishdan saqlaning. Bunday qilish vaqtinchalik yoki doimiy ekran nosozligiga yoki tasvirlarni noto'g'ri namoyishiga olib kelishi mumkin.



Mahsulot yoki uning qismlarini tozalaganda avval uni elektr tarmog'idan uzing va yumshoq mato bilan arting. Ortiqcha kuch ishlatish tirnalishlarning hosil bo'lishi yoki mahsulot asl rangining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Suv bilan tozalamang yoki ho'l matoda artmang. Hech qachon oyna tozalovchilar, avtomobillar uchun yoki sanoatda qo'llaniladigan yaltiratuvchilar, abraziv materiallar yoki mum, yoqilg'i, spirt kabilardan foydalanmang; bular mahsulot va uning paneliga zarar yetkazishi mumkin. Aks holda, bu yong'in chiqishi, elektr toki urishi yoki mahsulotga zarar yetishiga (deformatsiyalanishi, chirishi yoki buzilishiga) sabab bo'lishi mumkin.

Ushbu qurilma devordagi o'zgaruvchan tok rozetkasiga ulangan holda bo'lar ekan, hattoki siz ushbu qurilmani yoqqich/o'chirgichdan o'chirganingizda ham u quvvat manbaidan uzilmaydi.



Shnurni rozetkadan uzishda uning vilkasidan ushlang va vilkadan tortgan holda rozetkadan sug'urib oling. Shnurni rozetkadan uzishda uning bandidan foydalanish xavfli bo'lishi mumkin.



Mahsulotni siljitishda avval uning o'chirilganligiga ishonch hosil qiling. Keyin elektr tarmog'iga ulanish kabellari, antenna kabellari va barcha ulovchi kabellarni uzing. Televizor yoki quvvat manbaiga ulash shnuriga zarar yetishi mumkin, bu esa yong'in chiqishi xavfini vujudga keltirishi yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.



Mahsulotni siljitish yoki qadoq qutisidan bo'shatishda juft bo'lib ishlang, chunki mahsulot og'ir. Aks holda, bu shikastlanishga olib kelishi mumkin.



Mahsulotning ichki qismlarini tozalash uchun yiliga bir marta iste'molchilarni qo'llab-quvvatlash markaziga murojaat qiling. Yig'ilgan changlar mexanik nosozliklarga olib kelishi mumkin.



Barcha turdagi xizmat uchun malakali xizmat ko'rsatish xodimlariga murojaat qiling. Jihoz biror tarzda nosoz holatga kelgan, masalan, elektr tarmog'iga ulash shnuri yoki vilkasiga zarar yetgan, jihoz ustiga suyuqlik to'kilgan yoki buyumlar tushib ketgan, jihoz yomg'ir yoki namlikda qolgan, yaxshi ishlamayotgan yoki tushirib yuborilgan hollarda texnik xizmat ko'rsatish talab qilinadi.



Agar mahsulotga tegilganda sovuqdek tuyulsa, u yoqilganda ozgina miltillash bo'lishi mumkin. Bu tabiiy holdir; mahsulotda hech qanday muammo mavjud emas.



Panel ikki milliondan olti milliongacha bo'lgan piksellardan iborat bo'lgan yuqori texnologiyali displey mahsulotidir. Siz panelda o'lchami 1 ppm bo'lgan kichkina qora nuqtalarni va/yoki yorqin (qizil, ko'k, yashil) rangdagi nuqtalarni ko'rishingiz mumkin. Bu mahsulotning noto'g'ri ishlayotganligini bildirmaydi va ishlash samaradorligiga va mahsulot ishonchliligiga ta'sir ko'rsatmaydi.
Ushbu hodisa uchinchi tomon ishlab chiqaruvchilarining mahsulotlarida ham sodir bo'lishi mumkin va buning uchun ular almashtirib yoki xarajatlar qoplab berilmaydi.



Ko'rish nuqtasiga qarab (chap/o'ng/yuqori/past) paneldagi ravshanlik darajasi va ranglar farq qilishi mumkin.
Bu hodisa panelning o'ziga xos xususiyatlari tufayli sodir bo'ladi.
U ishlash samaradorligi bilan bog'liq emas va uning noto'g'ri ishlayotganligini anglatmaydi.

Uzoq vaqt davomida harakatsiz tasvirni namoyish qilish qoldiq tasvirga olib kelishi mumkin. TV ekranida uzoq vaqt davomida harakatsiz tasvirning namoyish qilinishiga yo'l qo'ymang.

Hosil qilingan ovoz

"Qarsillovchi" shovqin: Televizor ko'rish yoki o'chirish vaqtida chiqadigan qarsillovchi shovqin harorat va namlik tufayli plastik tarkibiy qismlarning qisqarishi orqali hosil qilinadi. Bu harorat natijasida deformatsiyalanish talab qilinadigan mahsulotlar uchun tabiiy hol hisoblanadi. Elektr zanjirining guvillashi/panelning g'o'ng'illashi: Mahsulotni ishlatish uchun katta miqdordagi elektr toki bilan ta'minlovchi yuqori tezlikda o'zgaruvchi zanjir tomonidan sezilarsiz shovqin hosil qilinadi. Shovqin darajasi mahsulotga turiga bog'liq. Ushbu hosil qilingan ovoz mahsulotning ishlash samaradorligiga va uning ishonchliligiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Televizor yaqinida yuqori voltli elektr mahsulotlaridan (masalan, elektr chivintutqichdan) foydalanmang. Bu mahsulotning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

3D tasvirlarni ko'rish (Faqat 3D rusumlar uchun)

⚠ OGOHLANTIRUV

Ko'rish muhiti

- Ko'rish vaqti
  - 3D tarkibni ko'rganda har soatda 5-15 daqiqada tanaffus qiling. 3D tarkibni uzoq vaqt davomida ko'rish bosh og'rishi, bosh aylanishi, ortiqcha charchoq yoki ko'zlarning toliqishiga olib kelishi mumkin.

Yorug'likka sezgirlik yoki surunkali xastalik bilan og'riganlar

- Ayrim foydalanuvchilar yonib o'chuvchi yorug'lik yoki 3D tarkibdan o'zgacha t'asirga uchraganlarida xastalik xuruji yoki boshqa nojo'ya ta'sirni boshdan kechirishlari mumkin.
- Ko'nglingiz ayniyotgan bo'lsa, homilador bo'lsangiz va/yoki epilepsiya, yurak urishining buzilishi, qon bosimi xastaliklari kabi surunkali xastaliklar bilan kasallangan bo'lsangiz, 3D videolarni ko'rmang.
- Stereo ko'rlik yoki stereo anomaliyadan aziyat chekuvchilarga 3D tarkib tavsiya qilinmaydi. Tasvirlarning ikkilanishi yoki noqulayliklarni his qilishlari mumkin.
- Agar sizda g'ilaylik, ambliopiya (ko'rish qobiliyatining kuchsizligi) yoki astigmatizm mavjud bo'lsa, sizda ranglarning darajasini sezish bo'yicha muammolar bo'lishi va tasvirlarning ikkilanishi tufayli tez charchashingiz mumkin. O'rtacha katta yoshdagi odamga nisbatan tez-tez tanaffus qilish tavsiya qilinadi.
- Agar sizning o'ng va chap ko'zlaringizning ko'rish qobiliyatlari har xil bo'lsa, 3D tarkibni ko'rishdan avval ko'rish qobiliyatingizni tekshirtiring.

3D tarkibni ko'rishni to'xtatib turishni yoki umuman ko'rmaslikni talab qiluvchi alomatlar

- Uyqusizlik, ko'p ishlash yoki spirtli ichimlik iste'mol qilish tufayli charchoqni his qilgan vaqtlaringizda 3D tarkibni ko'rmang.
- Bunday belgilar paydo bo'lgan zahotiyoq 3D tarkibni ko'rishni to'xtating va ushbu belgilar yetarlicha kamayguncha dam oling.
  - Bunday belgilar to'xtovsiz ravishda paydo bo'lgan hollarda shifokor bilan maslahatlashing. Bunday belgilarga bosh og'rig'i, ko'z soqqasining og'rishi, bosh aylanishi, ko'ngil aynishi, yurakning tez urishi, tasvirning chaplanishi, noqulaylikni his qilish, tasvirlarning ikkita ko'rinishi, ko'rish bilan bog'liq noqulayliklar va/yoki charchoq kabilar kiradi.

⚠ EHTIYOT BO'LING

Ko'rish muhiti

- Ko'rish masofasi
  - 3D tarkibni ko'rayotganda ekran diagonali uzunligidan kamida ikki barobar ko'p masofani saqlang. 3D tarkibni ko'rayotganda o'zingizni noqulay his qilsangiz, televizordan yanada uzoqlashing.

Ko'rish yoshi

- Go'daklar/Bolalar
  - 6 yoshdan kichik bo'lgan bolalar tomonidan 3D mazmundan foydalanish/3D tarkibni ko'rish taqiqlanadi.
  - 10 yoshdan kichik bolalarda ortiqcha ta'sirlanish va ortiqcha hayajonlanish sodir bo'lshi mumkin, chunki ularda ko'rish tizimining rivojlanish bosqichi tugallanmagan bo'ladi (masalan, ekranga tegish yoki uning ustiga sakrashga bo'lgan urinish). 3D tarkibni ko'rayotgan bolalarni maxsus nazorat qilish va ularga alohida e'tibor berish talab qilinadi.
  - Bolalarda kattalarga nisbatan 3D tasvirlarning ko'proq darajadagi binokulyar nomuvofiqligi sodir bo'ladi, chunki ularda ko'zlar orasidagi masofa kattalarnikiga qaraganda qisqaroqdir. Shuning uchun ular kattalarga nisbatan bir xil 3D tasvirni ko'proq darajadagi stereoskopik ahamiyat bilan qabul qiladilar.
- O'smirlar
  - Yoshi 19 dan kichikroq bo'lgan o'smirlar 3D tarkibdan yorug'likdan ta'sirlanish tufayli ortiqcha sezuvchanlikni namoyish qilishlari mumkin. Ularga charchagan vaqtlarida 3D tarkibni uzoq vaqt davomida ko'rishdan o'zlarini tiyishlarini maslahat bering.
- Keksalar
  - Keksa yoshdagilar 3D effektlarni yoshlarga nisbatan sustroq qabul qilishlari mumkin. Televizorga tavsiya qilingan masofadan yaqinroq o'tirmang.

3D ko'zoynaklardan foydalanishda ko'riladigan ehtiyotkorlik choralari

- Albatta LG 3D ko'zoynaklardan foydalaning. Aks holda, 3D videolarni to'g'ri ko'rolmasligingiz mumkin.
- O'zingizning oddiy ko'zoynaklaringiz, quyosh nurlaridan himoyalovchi ko'zoynaklar yoki boshqa turdagi himoya ko'zoynaklari o'rnida 3D ko'zoynaklardan foydalanmang.
- O'zgartirilgan 3D ko'zoynaklardan foydalanish ko'zlarning toliqishi yoki tasvir buzilishiga olib kelishi mumkin.
- 3D ko'zoynaklaringizni haddan tashqari past yoki yuqori haroratlarda saqlamang. Bu deformatsiyaga olib kelishi mumkin.
- 3D ko'zoynaklar nozik va osongina tirnaladi. Linzalarni artganda doimo yumshoq, toza matodan foydalaning. 3D ko'zoynaklarning linzalarini o'tkir narsalar bilan tirnalishiga yo'l qo'ymang, shuningdek, kimyoviy moddalar bilan tozalamang/artmang.

Tayyorlash

ESLATMA

- Agar televizor zavoddan chiqarilgandan keyin ilk marta yoqilgan bo'lsa, uning initsializatsiyasi uchun bir necha daqiqa vaqt sarflanishi mumkin.
- Ko'rsatilgan tasvir televizoringizdagidan farqlanishi mumkin.
- Televizoringizdagi OSD (displey ekrani) ushbu qo'llanmada ko'rsatilganidan biroz farq qilishi mumkin.
- Mavjud menyular va parametrlar kirish manbasi yoki siz foydalanayotgan mahsulot rusumidagidan farq qilishi mumkin.
- Kelajakda ushbu televizorga yangi funksiyalar qo'shilishi mumkin.
- Elektr quvvati iste'molini kamaytirish uchun ushbu televizor kutish rejimiga o'tkazilishi mumkin. Agar televizor ma'lum vaqt ko'rilmasa, u o'chirib qo'yilishi kerak, chunki bu quvvat iste'molini kamaytiradi.
- Tasvirning ravshanlik darajasi kamaytirilsa, foydalanish vaqtidagi quvvat iste'moli anchagina tejalishi mumkin va bu umumiy foydalanish xarajatlarini kamaytiradi.
- Mahsulotingiz bilan yetkazib beriladigan buyumlar rusumga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin.
- Mahsulot texnk xususiyatlari yoki ushbu qo'llanma tarkibiy qismiga mahsulot funksiyalarining yangilanishi tufayli avvaldan ogohlantirishsiz o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Eng maqbul darajada ulanish uchun HDMI kabellari va USB qurilmalari qalinligi 10 mmdan, kengligi 18 mmdan kamroq bo'lgan uyachalarga ega bo'lishi kerak. USB kabeli yoki USB xotira kartasi televizoringizdagi USB portiga mos kelmagan hollarda USB 2.0 ga mos uzaytirma kabeldan foydalaning.



- HDMI logotipi yopishtirilgan tavsiya etilgan kabeldan foydalaning.
- Agar tavsiya etilgan HDMI kabelidan foydalanmasangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuz berishi mumkin. (Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari)
  - Yuqori tezlikka ega HDMI®/™ kabeli (3 m yoki undan qisqa)
  - Ethernetga ulangan yuqori tezlikka ega HDMI®/™ kabeli (3 m yoki undan qisqa)

⚠ EHTIYOT BO'LING

- Xavfsizlik va mahsulotning xizmat ko'rsatish davomiyligini kafolatlash uchun ruxsatnomaga ega bo'lmagan buyumlardan foydalanmang.
- Ruxsat berilmagan buyumlardan foydalanish orqali yetkazilgan har qanday zarar yoki shikastlanishlar ishlab chiqaruvchi kafolati orqali qoplanmaydi.
- Ayrim rusumlar ekraniga yupqa parda yopishtirilgan va ushbu parda olib tashlanmasligi kerak.
- Barmoqlaringiz yoki boshqa har qanday asbob bilan mahsulotni paneldan ajratmang. (Faqat UF95**)



- Tayanchni TVga mahkamlashda ekranni tirnalishlardan himoya qilish uchun ekranni yumshoq stol yoki tekis yuzaga qaratgan holda qo'ying.
- Burama mixlarning to'g'ri kiritilganligi va mahkam qotirilganligiga ishonch hosil qiling. (Agar ular yetarli darajada mahkam qotirilmagan bo'lsa, TV o'rnatilgandan keyin oldinga qulab ketishi mumkin.) Ortiqcha ko'p kuch ishlatmang yoki burama mixlarni ortiqcha qotirib yubormang; aks holda burama mix shikastlanishi va to'g'ri qotirilmasligi mumkin.

Alohida xarid

Sifat darajasini yaxshilash maqsadida alohida xarid qilinadigan buyumlar ro'yxati hech qanday ogohlantirishsiz almashtirilishi yoki unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ushbu buyumlarni xarid qilish uchun o'z dileringizga murojaat qiling. Ushbu qurilmalar faqat ma'lum rusumlardagina ishlaydi. Rusum nomi yoki tuzilishi mahsulot funksiyalarining yangilanishi, ishlab chiqaruvchining vaziyati va ko'rsatmalariga asoslangan holda o'zgartirilishi mumkin.

(Rusumga qarab)

AG-F* ** 3D kino ko'zoynaklari	**AN-MR600** Sehrli masofadan boshqarish pulti	**AG-F***DP** Ikki o'yinchi ko'zoynaklari
AN-VC550 Smart kamerasi	LG Audio qurilmasi	

Texnik ta'mirlash

Televizorni tozalash

Eng yuqori sifatli namoyishni ta'minlash va mahsulotning xizmat ko'rsatish davomiyligini uzaytirish uchun televizoringizni muntazam ravishda tozalab boring.

- Eng avval televizorni o'chirganligingiz va quvvat manbaiga ulash shnuri hamda boshqa barcha kabellarni uzib qo'yganligingizga ishonch hosil qiling.
- Televizor uzoq vaqt davomida foydalanilmagan holda qoldirilganda chaqmoq yoki kuchlanishdagi sakrashlar natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish uchun quvvat manbaiga ulash shnurini rozetkadan uzib qo'ying.

Ekran, rama, korpus va peshtaxta

Chang yoki yengil kirlarni ketkazish uchun televizor yuzasini quruq, toza va yumshoq mato bilan arting.

Asosiy kirlarni ketkazish uchun yuzasini toza suv yoki yumshoq kir yuvish vositasi eritmasida namlangan yumshoq matoda arting. Keyin darhol quruq matoda artib yuboring.

- Hamma vaqt ekranga tegib turishdan saqlaning, chunki bu ekran buzlilishiga olib kelishi mumkin.
- Ekran yuzasini tirnog'ingiz yoki o'tkir buyumlar bilan siljitmang, ishqalamang va tegib ketmang, chunki bu ekran tirnalishiga va tasvir buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Kimyoviy moddalardan foydalanmang, chunki bu mahsulotga zarar yetkazishi mumkin.
- Ekran yuzasiga suyuqlik sepmang. Televizor ichiga suvning kirishi yong'in, elektr toki urishi yoki qurilmaning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

Quvvat manbaiga ulash shnuri

Quvvat manbaiga ulash shnurida to'plangan changlar yoki kirlarni muntazam ravishda tozalab boring.

Televizorni ko’tarish va siljitish

Iltimos, televizorning turi va hajmidan qat’iy nazar televizorning tirnalishi yoki unga zarar yetishi xavfining oldini olish va uni xavfsiz tarzda tashish uchun quyidagi maslahatlarga amal qiling.

- Televizorni u dastlab olib kelingan quti yoki o’ramda siljitish tavsiya qilinadi.
- Televizorni siljitish yoki ko’tarishdan avval undagi quvvat manbaiga ulash shnuri va barcha kabellarni uzib qo’ying.
- Televizorni ushlab turganda unga zarar yetishining oldini olish uchun uning ekrani sizga teskari holda bo’lishi kerak.



- Televizor korpusining yuqori va quyi qismlarini mahkam ushlang. Shaffof qismi, dinamik yoki dinamikning to’rli qismidan ushlab olmaganligingizga ishonch hosil qiling.



- Katta televizorlarni tashish uchun kamida ikki kishi bo’lishi kerak.
- Televizor qo’lda tashilgan vaqtda uni quyidagi tasvirda ko’rsatilgani kabi ushlang.



- Televizorni tashish vaqtida uni zarbalar yoki ortiqcha tebranishlar ta’sirida qoldirmang.
- Televizorni tashish vaqtida uni vertikal holatda ushlang, hech qachon televizorni yon tomonga burmang va chapga yoki o’ngga qiyalatmang.
- Rama shassilarining bukilishi/egilishiga olib keluvchi ortiqcha bosim ishlatmang, chunki bu ekranga zarar yetkazishi mumkin.
- Televizor bilan muomala qilganda turtib chiqqan joystik tugmasiga shikast yetkazmang.

⚠ EHTIYOT BO’LING

- Hamma vaqt ekranga tegib turishdan saqlaning, chunki bu ekran buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Kabellarni tutqichlaridan ushlagan holda televizorni siljitmang, chunki ular sinishi va buning natijasida shikastlanish yoki televizorga zarar yetkazishi mumkin.

Joystik tugmasidan foydalanish

(Ko’rsatilgan tasvir televizoringizdagidan farqlanishi mumkin.)

Joystik tugmasini bosish yoki uni chapga, o’ngga, yuqoriga yoki pastga surish orqali televizoringizni osongina boshqarishingiz mumkin.



Asosiy funksiyalar

	Yoqish	Televizor o’chirilgan vaqt barmog’ingizni joystik tugmasiga qo’ying va uni bir marta bosing.
	O’chirish	Televizor yoqilgan vaqt barmog’ingizni joystik tugmasiga qo’ying va uni bir marotaba bir necha soniya davomida bosib turing. Barcha ishlayotgan ilovalar yopiladi, va har qanday amaldagi yozib olish to’xtatiladi.
	Ovozni boshqarish	Agar barmog’ingizni joystik tugmasi ustiga qo’ygan holda uni chapga yoki o’ngga sursangiz, istagan ovoz balandligi darajasiga sozlashingiz mumkin.
	Dasturlar boshqaruvi	Agar barmog’ingizni joystik tugmasi ustiga qo’ygan holda uni yuqoriga yoki pastga sursangiz, istagan saqlab olingan kanalga o’tishingiz mumkin.

Menyuni sozlash

Televizor yoqilgan vaqt joystik tugmasini bir marta bosing. Joystik tugmasini yuqoriga, pastga, chapga yoki o’ngga surish orqali menyu elementlarini sozlashingiz mumkin.

⏻	Televizorni o’chiradi.
✕	Ekranni mavjud tasvirlardan tozalaydi va televizor ko’rish rejimiga qaytaradi.
⏏	Kirish manbasini o’zgartiradi.
⚙	Tezkor parametrlarga kiradi.

O’ZBEKCHA

ESLATMA

- Barmog'ingiz joystik tugmasi ustida bo'lganda va uni yuqoriga, pastga, chapga yoki o'ngga surganingizda, joystik tugmasini bosib yubormang. Agar avval joystik tugmasini bosib yuborsangiz, siz ovoz balandligi darajasi va saqlab olingan dasturlarni o'zgartira olmaysiz.

Stol ustiga o'rnatish

(Ko'rsatilgan tasvir televizoringizdagidan farqlanishi mumkin.)

1 Televizorni ko'taring va uni vertikal holatga keltirgan holda stol ustiga qo'ying.

- Yetarlicha havo aylanib turishi uchun devor bilan televizor orasida (eng kamida) 10 sm masofa qoldiring.



2 Quvvat manbai shnurini rozetkaga ulang.

EHTIYOT BO'LING

- Televizorni issiqlik manbalari yaqini yoki ustiga joylashtirmang, chunki bu yong'in yoki boshqa ko'ngilsiz hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kensington xavfsizlik tizimidan foydalanish

(Ushbu funksiya barcha rusumlarda ham mavjud bo'lavermaydi.)

- Ko'rsatilgan tasvir televizoringizdan farq qilishi mumkin.

Kensington xavfsizlik tizimi ulagichi televizorning orqa tarafida joylashgan. O'rnatish va foydalanish to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun Kensington xavfsizlik tizimi tomonidan taqdim etilgan qo'llanmaga qarang yoki *http://www.kensington.com* saytiga tashrif buyuring. Kensington xavfsizlik tizimi kabelini televizor va stol orasiga ulang.



Televizorni devorga mahkamlash

(Ushbu funksiya barcha rusumlarda ham mavjud bo'lavermaydi.)



1 Teshikli boltlar yoki devorga mahkamlanadigan tayanch va boltlarni televizorning orqa paneliga kiriting va tortib mahkamlang.

- Agar teshikli boltlar o'rnida boltlar o'rnatilgan bo'lsa, ularni olib tashlang.

2 Tayanchlarni boltlar yordamida devorga o'rnating. Tayanch va televizor orqa panelidagi teshikli boltlarning joylashuv o'rinlarini moslashtiring.

3 Teshikli boltlar va tayanchlarni mustahkam bog'lagich bilan ulang. Bog'lagich tekis sirtda gorizontal holatda bo'lishiga ishonch hosil qiling.

EHTIYOT BO'LING

- Bolalarning televizor ustiga tirmashib chiqmasliklari va osilmasliklariga ishonch hosil qiling.

ESLATMA

- Televizor mahkam turishi uchun yetarli darajada mustahkam va katta platforma yoki shkafdan foydalaning.
- Tayanch moslamalar, boltlar va bog'lagichlar mahsulot bilan birga yetkazib berilmaydi. Qo'shimcha qurilmalar uchun mahalliy dileringizga murojaat qiling.

Devorga o'rnatish

Devorga o'rnatiladigan tayanchni televizorning orqa tarafiga ehtiyotlik bilan mahkamlang va uni mustahkam devorga polga perpendikulyar holda o'rnating. Televizorni boshqa qurilish mollariga biriktirishda malakali xodimga murojaat qiling. LG devorga o'rnatishni malakali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishini tavsiya qiladi. Biz LGning devorga o'rnatish kronshteynidan foydalanishni tavsiya qilamiz.
LG-ning devorga o'rnatish kronshteynini ulangan kabellar bilan joyini o'zgartirish osondir. Iltimos, LGning devorga o'rnatish kronshteynidan foydalanilmagan holatlarda, tashqi qurilmalarga ulanish uchun yetarlicha joy bilan ta'minlangan va devorga mahkam qotirilgan devor kronshteynidan foydalaning. Qotirilgan devorga o'rnatish kronshteynini o'rnatishdan oldin barcha kabellarni ulash tavsiya qilinadi.



VESA (Videoelekronikani Standartlashtirish Uyushmasi) talablariga javob beruvchi burama mixlar va devorga mahkamlanadigan tayanchdan foydalaning. Devorga o'rnatishda foydalaniladigan to'plam uchun standart o'lchamlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Alohida xarid (Devorga mahkamlanadigan tayanch)

Rusum	43UF69** 40/43UF77** 40/43UF80**	49UF69** 49/55UF77** 49/55UF80** 49/55UF85** 55UF86** 55UF95** 55UG87**
VESA (mm) (A x B)	200 x 200	300 x 300
Standart burama mix	M6	M6
Burama mixlar soni	4	4
Devorga mahkamlanadigan tayanch	LSW240B MSW240	LSW350B MSW240
Rusum	60/65UF77** 60/65UF80** 60/65UF85** 65UF86** 65UF95** 65UG87**	70/79UF77** 79UF86**
VESA (mm) (A x B)	300 x 300	600 x 400
Standart burama mix	M6	M8
Burama mixlar soni	4	4
Devorga mahkamlanadigan tayanch	LSW350B	LSW640B



⚠ EHTIYOT BO'LING

- Televizorni avval elektr manbasidan uzing va keyin siljiting yoki o'rnating. Aks holda, elektr toki urishi sodir bo'lishi mumkin.
- Televizorni devorga o'rnatishdan avval tayanchni mahkamlash harakatlarini teskari tartibda bajargan holda tayanchi televizordan ajratib oling.
- Agar televizorni shiftga yoki qiya devorga o'rnatsangiz, u tushib ketishi va natijada jiddiy zarar yetishi mumkin. LG tavsiya qilgan devorga o'rnatish qurilmasidan foydalaning va mahalliy diler yoki malakali xodimlarga murojaat qiling.
- Burama mixlarni haddan tashqari qattiq qotirmang, chunki bu televizorga zarar yetkazishi va berilgan kafolatning bekor qilinishiga olib kelishi mumkin.
- VESA (Videoelekronikani Standartlashtirish Uyushmasi) standartiga mos keladigan burama mixlar va devorga o'rnatish qurilmalaridan foydalaning. Noto'g'ri foydalanish yoki mos bo'lmagan yordamchi qurilmalardan foydalanish oqibatida yetkazilgan har qanday zarar va shikast ishlab chiqaruvchining kafolati bilan qoplanmaydi.

❗ ESLATMA

- VESA (Videoelekronikani Standartlashtirish Uyushmasi) standarti bo'yicha ko'rsatilgan burama mixlardan foydalaning.
- Devorga o'rnatishda foydalaniladigan to'plam kerakli qismlarni o'z ichiga oladi.
- Devorga mahkamlanadigan tayanch bilan LG ta'minlamaydi. Qo'shimcha qurilmalar uchun mahalliy dilerga murojaat qilishingiz mumkin.
- Burama mixlarning uzunligi devorga o'rnatiladigan tayanch turiga bog'liq ravishda farqlanishi mumkin. Kerakli uzunlikdagi burama mixlardan foydalaning.
- Qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun devorga o'rnatish qurilmasi bilan birga taqdim qilingan qo'llanmaga qarang.
- Devorga o'rnatish kronshteynini o'rnatishda Himoyaviy yelim qog'ozdan foydalaning. Himoyaviy yelim qog'oz tirqishlarni chang va kirlar to'planib qolishidan himoya qiladi. (Faqat quyidagi shakldagi element bilan ta'minlansa)



- Devorga o'rnatish kronshteynini televizorga mahkamlashda televizorning vertikal burchagini moslashtirish uchun devorga o'rnatish qistirmalarini TVning devorga o'rnatish teshiklariga kiriting. (Faqat quyidagi shakldagi element bilan ta'minlansa)



- Tayanch shakliga qarab, quyidagi rasmda ko'rsatilganidek, tayanch qopqog'ini olib tashlash uchun tekis asbobdan foydalaning. (masalan, otvyortka) (Faqat quyidagi shakldagi element bilan ta'minlansa)



Ulanishlar (bildirishnomalar)

Istalgan tashqi qurilmani televizorga ulang va tegishli qurilmani tanlash uchun kirish manbasini o'zgartiring. Tashqi qurilmani ulash bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun har bir qurilma bilan taqdim qilibadigan qo'llanmaga qarang.

Foydalanish mumkin bo'lgan tashqi qurilmalar: HD tyunerlar, DVD pleyerlar, videomagnitofonlar, audio tizimlar, USB xotira qurilmalari, kompyuter, o'yin qurilmalari va boshqa tashqi qurilmalar.

ESLATMA

- Tashqi qurilmani ulash rusumga bog'liq holda farq qilishi mumkin.
- Tashqi qurilmalarni televizor portlari tartibiga bog'liq bo'lmagan holda televizorga ulang.
- Agar siz televizion dasturni DVD yoki videomagnitofon orqali yozib olmoqchi bo'lsangiz, kirish manbasi kabeli televizoringizga DVD yoki videomagnitofon orqali ulanganligiga ishonch hosil qiling. Yozib olish to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun ulangan qurilma bilan berilgan qo'llanmaga qarang.
- Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar olish uchun tashqi qurilma qo'llanmasiga qarang.
- O'yin qurilmasini televizorga ulash uchun o'yin qurilmasi bilan birga yetkazib berilgan kabeldan foydalaning.
- Kompyuter rejimida tasvir aniqligi, vertikal namunalar, kontrast yoki ravshanlik bilan bog'liq shovqinlar mavjud bo'lishi mumkin. Agar shovqinlar mavjud bo'lsa, kompyuter chiqishini boshqa tasvir aniqligiga o'zgartiring, yangilash intervalini boshqasiga sozlang yoki TASVIR menyusida tasvir aniq bo'lguniga qadar ravshanlik va kontrast darajasini o'zgartiring.
- Kompyuter rejimida ayrim tasvir aniqligi sozlanmalari videokartaga bog'liq ravishda kutilganidek ishlamasligi mumkin.
- Agar SHKda ULTRA HD tarkib namoyish qilinsa, SHKning ishlash samaradorligiga qarab video yoki audio namoyish vaqti-vaqti bilan uzilishi mumkin. (Rusumga qarab)

Antennani ulash

Televizorni devordagi antenna uyachasiga RF kabeli (75 Ω) bilan ulang.

- 2 tadan ko'proq televizordan foydalanish uchun signal splitteridan foydalaning.
- Agar tasvir sifati yomon bo'lsa, tasvir sifatini yaxshilash uchun signal kuchaytirgichni to'g'ri o'rnating.
- Agar antenna ulangan holda tasvir sifati yomon bo'lsa, antennani to'g'ri yo'naltirishga harakat qiling.
- Antenna kabeli va konverter qurilma bilan birga berilmaydi.
- Mos DTV Audio: MPEG, Dolby Digital, Dolby Digital Plus, HE-AAC
- ULTRA HD efirga uzatuvi uchun mo'ljallanmagan hudud ichida televizor ULTRA HD efirga uzatuv signallarini qabul qila olmaydi. (Rusumga qarab)

Sun'iy yo'ldosh antennasini ulash

(Faqat sun'iy yo'ldosh rusumlari uchun)

Televizorni sun'iy yo'ldosh antennasidagi sun'iy yo'ldosh uyachasiga RF kabeli (75 Ω) bilan ulang.

Euro Scart ulanishi

(Rusumga qarab)

Video va audio signallarni tashqi qurilmadan televizorga uzatadi. Tashqi qurilmani Euro scart kabeli bilan televizorga ulang.

Chiqish turi / Joriy kirish rejimi	AV1 (TV-chiqish[1])
Raqamli TV	Raqamli TV
Analog TV, AV	Analog TV
Tarkibiy qism	
HDMI	

1 TV-chiqish : Analog televizion yoki raqamli televizion signallarni uzatadi.

- Foydalanilmoqchi bo'lgan Euro scart kabeli signallardan himoyalangan bo'lishi kerak.
- 3D tasvir rejimida televizor ko'rilganda SCART kabeli orqali faqat 2D signallargina chiqarilishi mumkin. (Faqat 3D rusumlar uchun)
- Agar raqamli televizorda Time Machine - Vaqt Mashinasi funksiyasidan foydalansangiz, TV-chiqish signallari SCART kabeli orqali uzatilmaydi.

CI modul ulanishi

(Rusumga qarab)

Raqamli televideniye rejimida shifrlangan (pullik) xizmatlardan foydalaning.

- CI modulining PCMCIA kartasi slotiga to'g'ri yo'nalishda kiritilganligini tekshiring. Agar modul to'g'ri kiritilmagan bo'lsa, bu televizor va PCMCIA kartasi slotining buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Agar CI+ CAM ulangan vaqt televizor hech qanday video va audio tarkibni namoyish qilmasa, Antenna/Kabel/Sun'iy yo'Idosh xizmat operatoriga murojaat qiling.

USB ulanishi

Ayrim USB xablari ishlamasligi mumkin. USB xabidan foydalanib, ulangan USB qurilmasi aniqlanmagan hollarda uni to'g'ridan-to'g'ri televizordagi USB portiga ulang.

Boshqa ulanishlar

Televizoringizni tashqi qurilmalarga ulang. Yuqori sifatli tasvir va audio uchun televizoringizni tashqi qurilmaga HDMI kabeli bilan ulang. Ba'zi alohida kabellar qurilma bilan birga taqdim qilinmaydi.

- ⌂ → ⚙ → ⋮ → **Rasm** → **HDMI ULTRA HD Deep Colour**
  - **Yoq.:** 4000 @ 50/60 Gs (4:4:4, 4:2:2, 4:2:0) ni qo'llab-quvvatlaydi.
  - **O'ch.:** 4000 @ 50/60 Gs (4:2:0) ni qo'llab-quvvatlaydi.

  Agar Kirish Manbasi Portiga ulangan qurilma ham ULTRA HD DEEP COLOURga mos kelsa, tasvir yanada tiniqroq bo'ladi. Biroq, agar qurilma ushbu fomatga mos tushmasa, u noto'g'ri ishlashi mumkin. Bunday holda qurilmani boshqa HDMI portiga ulang yoki TV **HDMI ULTRA HD Deep Colour** parametrini **O'ch.**ga sozlang. (Ushbu xususiyat faqat ULTRA HD Deep Colour mavjud rusumlardagina mavjud.)

ESLATMA

- Qo'llab-quvvatlanadigan HDMI audio formatlari : Dolby Digital (32 kGs, 44,1 kGs, 48 kGs), DTS (44,1 kGs, 48 kGs), PCM (32 kGs, 44,1 kGs, 48 kGs, 96 kGs, 192 kGs) (Rusumga qarab)

Masofadan boshqarish pulti

Ushbu qo'llanmadagi tavsiflar masofadan boshqarish pultidagi tugmalarga asoslangan. Iltimos, ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va televizordan to'g'ri foydalaning.

Batareyalarni almashtirish uchun batareya qo'yish bo'lmasi qopqog'ini oching ⊕ va ⊖ uchlari bo'lma ichidagi yorliqqa mos bo'lgan batareyalar (1,5 V AAA) bilan almashtiring va batareya qo'yish bo'lmasi qopqog'ini yoping. Batareyalarni olib tashlash uchun o'rnatish harakatlarini teskari tartibda bajaring.

⚠ EHTIYOT BO'LING

- Eski va yangi batareyalarni aralash holda o'rnatmang, chunki bu masofadan boshqarish pultiga zarar yetkazishi mumkin.
- Masofadan boshqarish pulti bozorlarga sotuvga chiqarilmaydi.

Masofadan boshqarish pultini televizordagi masofadan boshqarish sensoriga yo'naltirganligingizga ishonch hosil qiling.

(Rusumga qarab)



A

(QUVVAT) Televizorni o'chiradi va yoqadi.
INPUT Ma'lumot manbasini o'zgartiradi.
Q. MENU / **(Parametrlar)** Tezkor parametrlarga kiradi.
INFO ⓘ Joriy dastur va ekran to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatadi.
SUBTITLE O'zingiz istagan subtitrni raqamli rejimda namoyon qiladi.
TV/RAD Radio, televizor va DTV dasturini tanlaydi.
Raqamli tugmalar Raqamlarni kiritadi.
GUIDE Teledasturlar ro'yxatini ko'rsatadi.
(Bo'sh joy) Ekrandagi klaviaturada bo'sh joyni ochadi.
Q.VIEW Avvalgi ko'rilgan kanalga qaytaradi.

B

+ − Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.
FAV Sizning sevimli kanallaringiz ro'yxatiga kiradi.
3D 3D videolarni ko'rishda foydalaniladi.
MUTE Barcha ovozlarni o'chiradi.
∧ **P** ∨ Saqlab olingan kanallar bo'ylab o'tkazadi.
∧ **PAGE** ∨ Avvalgi yoki keyingi ekranga o'tkazadi.
RECENT Avvalgi tarixni ko'rsatadi.
(Uy) Uy menyusiga qaytaradi.
LIVE MENU Tavsiya etilgan, Dastur, Izlash va Yozib olinganlar ro'yxatini ko'rsatadi. (Rusumga qarab)



C

Telematn tugmalari (TEXT / T.OPT) Ushbu tugmalardan telematnlar uchun foydalaniladi.
Yo'naltirish tugmalari (yuqoriga/pastga/chapga/o'ngga) Menyular yoki parametrlar bo'ylab ko'rish imkonini beradi.
OK Menyular yoki parametrlarni tanlaydi va siz kiritgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.
BACK Avvalgi holatga qaytaradi.
EXIT Ekrandagi tasvirlarni tozalaydi va televizor ko'rish rejimiga qaytaradi.
AD AD tugmasini bosgan holda audio bayonlar funksiyasi yoqiladi.
REC Yozib olishni boshlaydi va yozib olish menyusini chiqaradi. (faqat Time Machine[Ready] mavjud rusumlarda) (Rusumga qarab)
Boshqaruv tugmalari (■, ▶, ❚❚, ◀◀, ▶▶) OLIY TARKIB, Time Machine[Ready] yoki SIMPLINKga mos tushadigan qurilmalar (USB, SIMPLINK yoki Time Machine[Ready]) menyularini boshqaradi.
Rangli tugmalar Bular ayrim menyulardagi maxsus funksiyalarga kirish imkonini beradi.
